



2022-yil 12-dekabr

2022-yil yanvar-sentabr oylari davomida “O'zkiyosanoat” AJ tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash yuzasidan olib borilgan ishlar to'g'risida ma'lumot

2022-yil yanvar-sentyabr oylari davomida “O'zkiyosanoat” AJ ijro apparatiga tushgan jami murojaatlar soni 417 tani tashkil etib, 94 tasi yuridik shaxslardan, 323 tasi jismoniy shaxslardan kelib tushgan. Jami murojaatlarning 71 tasi qanoatlantirilgan, 346 tasi bo'yicha tushuntirish berilgan.

Murojaatlarning 154 tasi ishga kirish, 43 tasi mineral o'g'itlar eksporti, 40 tasi homiylik yordami ko'rsatish, 35 tasi qonun va tartib buzilishlari, 28 tasi mineral o'g'it sotib olish, 16 tasi ish haqini oshirish, 15 tasi hamkorlik qilish, 12 tasi debitor va kreditor qarzdorlik, 5 tasi konvertatsiya, 1 tasi imtiyozli nafaqaga chiqish, 68 tasi boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali 2022-yilning 9 oyi davomida “O'zkiyosanoat” AJga jami 170 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 24 tasi qanoatlantirilgan, 146 tasi bo'yicha tushuntirish berilgan. Murojaatlarning aksariyati Navoiy, Qashqadaryo, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida yashovchi fuqarolarga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari orqali 2022-yilning 9 oyi davomida “O'zkiyosanoat” AJga jami 6 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 2 tasi ijobiy hal qilingan, 4 tasi bo'yicha tushuntirish berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi orqali 2022-yil yanvar-sentyabr oylari davomida “O'zkiyosanoat” AJga jami 66 ta murojaat kelib tushgan. Murojaatlarning aksariyati yuridik shaxslarga tegishli bo'lib, ularning 27 tasi mineral o'g'itlar eksporti, 14 tasi mineral o'g'it sotib olish yuzasidan, 9 tasi ishga joylashish, 8 tasi tijorat takliflari, 8 tasi boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan.

Hisobot davrida boshqaruv raisi tomonidan “Maksam-Chirchiq” AJda va “Dehqonobod kaliy zavodi” AJda, boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari tomonidan “Navoiyazot” AJda va “Dehqonobod kaliy zavodi” AJda, boshqaruv raisining iqtisod va moliya bo'yicha o'rinbosari tomonidan “Navoiyazot” AJda va “Ammafos-Maksam” AJda hamda boshqaruv raisining investitsiya va innovatsiya masalalari bo'yicha o'rinbosari tomonidan “Navoiyazot” AJda Sayyor qabullar o'tkazilgan. Sayyor qabular davomida 27 nafar fuqaro qabul qilingan.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari jamiyatning ijro apparatida ko'rib chiqilgan hamda

qonunda belgilangan muddatlarda murojaat mualliflariga javob berilgan.

source:

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/appeal/appeals-analysis/report-202209>